1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8
MAXSUS SON

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref

BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO‘PLAMI

ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 110 sahifa.
2025-yil noyabr

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna

FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS 15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujaev, Mohit Bhandwal

BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 22
Ikromov Boisxon Bahodir o‘g‘li, Ozodbek Musayev

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI 27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li

YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR 32
Rafiqov Abror Baxtiyor o‘g‘li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o‘g‘li

OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI 36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o‘g‘li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O‘SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI 41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG‘URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI 46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MILLIY TO‘LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI 50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE 56
Pirnazarov Elchin Anvar o‘g‘li, Yoldasheva Roila Jumaevna

JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK 61
Qayumov Sobit Obid o‘g‘li, Xasanov Nodir Erkinovich

LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT 68
Qurbonov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafoyev Golib Sultonmurodovich

ISTE’MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI 75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov

KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH 80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA’SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI 87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov

QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O‘RNI 93
G‘ulomiddinov Bobobek Sardorjon o‘g‘li, G‘ulamov Ilhom Akramovich

BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI 103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov

МУНДАРИЖА СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI

Fayzullayev Aminjon
TDIU, Iqtisodiyot fakulteti I-75-gurux talabasi

Ilmiy rahbar:
F.Umarov
TDIU, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrasi dosenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘oniston tarixan iqtisodiyot va madaniyat markazlaridan biri sifatida mintaqa davlatlari uchun strategik ahamiyat kasb etgani yoritiladi. Uning geografik joylashuvi, diniy, etnik, madaniy va lingvistik mushtaraklik Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O‘zbekiston bilan o‘zaro ta’sirning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Afg‘onistonning geografik uzviyligi mintaqa bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikda bir vaqtning o‘zida imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltiradi. Umuman, Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa O‘zbekiston, Afg‘oniston bilan yaqin iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarga ega bo‘lgan qo‘shni geografiyalar sirasiga kiradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Afg‘oniston, iqtisodiy hamkorlik, tranzit, memorandum, savdo hajmi, investitsiya, xavfsizlik.

Abstract: This article examines Afghanistan as one of the historical centers of economic and cultural development in the region and as a significant geostrategic area influencing surrounding territories. Its geographical continuity, along with religious, ethnic, cultural, and linguistic commonalities, has shaped close interactions among regional countries. Afghanistan’s geographic position creates both opportunities and challenges in bilateral and multilateral relations with Central Asian states. Overall, Central Asia, particularly Uzbekistan, has been among the closest neighboring regions actively engaged with Afghanistan in economic, political, and cultural spheres.

Key words: Uzbekistan, Afghanistan, economic cooperation, transit, memorandum, trade volume, investment, security.

Аннотация: В данной статье рассматривается Афганистан как один из исторических центров экономики и культуры региона, а также как ключевое геостратегическое пространство, оказывающее влияние на сопредельные территории. Географическая взаимосвязанность, а также религиозное, этническое, культурное и лингвистическое родство обусловили тесные связи между странами региона. Географическая непрерывность Афганистана порождает как равные возможности, так и вызовы в двусторонних и многосторонних отношениях с государствами Центральной Азии. В целом Центральная Азия и, в частности, Узбекистан традиционно относятся к ближайшим соседям, активно взаимодействующим с Афганистаном.

Ключевые слова: Узбекистан, Афганистан, экономическое сотрудничество, транзит, меморандум, объем торговли, инвестиции, безопасность.

KIRISH

Afg‘oniston 1991-yil 2-yanvarda O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi va Afg‘onistonning Toshkentdagi elchixonasi 1991-yil 22-dekabrda tashkil etildi.

Afg‘onistonda Muvaqqat hukumat tashkil etilgandan so‘ng, Kobulga elchi yuborish va Balxda konsullik ochish orqali O‘zbekiston Afg‘oniston bilan rasmiy aloqalarni o‘rnatdi. Ikki mamlakat rasmiylari o‘rtasidagi rasmiy tashriflar sezilarli darajada oshdi va shu sababli tomonlar savdo, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarda kelishuvlarni imzoladilar. Ikki mamlakat o‘rtasidagi eng muhim kelishuv – shu paytgacha Afg‘oniston ehtiyojlarining katta qismini qondirib kelayotgan O‘zbekistondan Afg‘onistonga elektr energiyasini yetkazib berish bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumi imzolanishidir.

2014-yilgacha Afg‘oniston tashqi siyosatining G‘arb va AQShga yo‘naltirilganligi sababli Pokiston, Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston, Afg‘oniston tashqi siyosatida ikkinchi darajali mavqega ega bo‘ldi. Milliy birlik hukumatining tuzilishi bilan Prezident Mohammad Ashraf G‘ani o‘zining tashqi siyosatini besh doira bo‘yicha belgilab berdi. Afg‘onistonga qo‘shni sifatida O‘zbekiston Afg‘oniston tashqi siyosatining boshida turar edi va ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga o‘tdi [10].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston va Afg‘oniston hamkorlik munosabatlarining yangi bosqichi yuzasidan turli xalqaro axborot agentliklari, tahliliy platformalar, ilmiy jurnallar va rasmiy statistik manbalarda keng qamrovli ma’lumotlar yoritilgan. Anadolu Agency (2024), VOA News (2024) va The Diplomat (2024) kabi asosiy global axborot manbalari ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning jadallashganini, xususan, 2024-yil avgustda imzolangan 2,5 milliard dollarlik yirik investitsiya va savdo kelishuvlari paketi mintaqada yangi geosiyosiy muvozanat shakllantirayotganini qayd etadi. Ushbu manbalarda O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan pragmatik yondashuv asosida aloqalarni kuchaytirishga intilishi, ayniqsa, mamlakatda Tolibon hokimiyat tepasiga kelganidan keyingi davrda mintaqaviy barqarorlikni saqlashdagi strategik ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikka doir ma’lumotlar TOLOnews (2024, 2025), Gazeta.uz (2025), UzDaily, Intellinews (2024) hamda UN COMTRADE va O‘zbekiston Respublikasi statistik portali (stat.uz) orqali yoritilgan. Mazkur manbalarda 2024-2025-yillarda ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasining sezilarli oshgani, 2024-yilda savdo hajmi 1,13-1,14 milliard dollarga yetgani, 2025-yilning dastlabki sakkiz oyida esa O‘zbekistonning Afg‘onistonga eksporti 873 million dollarni tashkil etgani haqida aniq statistika keltiriladi. Shuningdek, 2024-yil avgust oyidagi uchrashuvlarda 35 ta memorandumning imzolanishi, ularning umumiy qiymati 2,5 milliard dollar ekani, xususiy sektor doirasida esa o‘nlab mayda va o‘rta ko‘lamdagi investitsion kelishuvlar amalga oshirilgani haqida ham tahliliy ma’lumotlar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani o‘rganishda ilmiy bilimlarning mantiqiy, izchil, tarixiy va obyektiv usullari keng qo‘llanilgan. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda marketingning o‘rni ob’ektiv ochib berildi. Marketingni boshqarish texnologiyalarining rivojlanish davri tarix nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog‘lovchi geografik joylashuvi tufayli Afg‘oniston mintaqada savdo, tranzit va energetika loyihalari uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Sovet davridan boshlab O‘zbekiston bilan Afg‘oniston o‘rtasida iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lib, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida hamkorlik, savdo aloqalari va infratuzilmaviy loyihalar (masalan, Do‘stlik ko‘prigi, Hayraton-Termiz shaharlarini bog‘lovchi loyiha) davom etgan. 2021-yil 15-avgustda Afg‘onistonda Tolibon o‘z hokimiyatini e’lon qilgach, ko‘plab davlatlar siyosiy jihatdan Tolibonni tan olishdan tiyildi. Yuzaga kelgan siyosiy noaniqlik va xavfsizlik muammolari sababli xalqaro institutlar va investorlarning faoliyati cheklangan. Shunga qaramay, tranzit yo‘llari, suv resurslari masalasi, energetika va savdo bozori manfaatlari tufayli qo‘shni davlatlar Afg‘oniston bilan iqtisodiy aloqalarni davom ettirishga majbur bo‘ldi.

Afg‘oniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi hozirgi kunda nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, har ikki mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega. 2024-2025-yillarda O‘zbekiston–Afg‘oniston munosabatlari yuqori darajadagi tashriflar, memorandumlar va biznes forumlar bilan jonlandi. 2024-yil avgustdagi Aripov tashrifi davomida 35 ta memorandum imzolandi (2,5 mlrd dollar qiymatida e’lon qilingan) va keyingi yillarda savdo hajmi sezilarli o‘sdi. 2024-yilda savdo aylanmasi taxminan 1,13 mlrd dollarni tashkil etdi, 2025-yilning 8 oyida esa O‘zbekiston eksporti Afg‘onistonga 873 mln dollarga yetdi. Bu raqamlar ikki

tomonlama iqtisodiy aloqalarning va mintaqaviy tranzitdagi rolning oshib borayotganini ko‘rsatadi. Keling, endi bu jarayonni har tomonlama – iqtisodiy, siyosiy, infratuzilma, ijtimoiy va mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan batafsil tahlil qilaylik [13].

Ushbu maqolada 2021-2025-yillarda O‘zbekiston va Afg‘oniston (Tolibon hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng) o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy aloqalarning holati, bu aloqalarning mintaqadagi ta’siri haqida keng qamrovli tahlil taqdim etiladi. Maqola ommaviy va rasmiy manbalar, milliy statistik ma’lumotlar va bitimlar ro‘yxati asosida yozilgan. Asosiy e’tibor savdo hajmlari, imzolangan memorandumlar va bitimlarning tarkibi, tranzit va infratuzilma loyihalari, investitsion imkoniyatlar, xavfsizlik, huquqiy cheklovlar hamda ikki tomon uchun ham, mintaqa uchun ham hosil bo‘ladigan foydalar va risklarni o‘rganishga qaratildi. 2024-yil avgustida O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripovning Kobulga tashrifi chog‘ida imzolangan 35 ta memorandumning umumiy qiymati 2,5 mlrd dollar deb e’lon qilindi. 2024-yil uchun ikki tomonlama savdo aylanmasi taxminan 1,13-1,14 mlrd AQSH dollari darajasida qayd etildi va 2025-yilning dastlabki 8 oyida O‘zbekistonning Afg‘onistonga eksporti 873 mln dollarga yetdi. Ushbu ish memorandumlarning real amalga oshish darajasini baholaydi, tranzit loyihalari (jumladan, UAP temir yo‘li) imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qiladi hamda amaliy tavsiyalar beradi.

Shuningdek, 2025-yil yanvar-oktabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 66,5 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-oktabriga nisbatan 11 752,3 mln AQSH dollariga yoki 21,5 % ga ko‘paydi. TSAda eksport hajmi 29 005,9 mln AQSH dollariga (2024-yilning yanvar–oktabr oylariga nisbatan 27,8 % ga o‘sdi) va import hajmi 37 533,4 mln AQSH dollariga (16,9 % o‘sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 8 527,5 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi (1-rasm) [13].



1-rasm. Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSH dollari

O‘zbekiston jahonning 210 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (19,7 %), Rossiya (15,9 %), Qozog‘iston (5,9 %), Turkiya (3,7 %) va Koreya Respublikasi (2,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,3 %ni tashkil etib, unda asosan sanoat tovarlari (10,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,2 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,0 %) hamda har xil tayyor mahsulotlar (4,9 %) hissasi yuqori bo‘ldi.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (12,6 %), Xitoy (5,6 %), Qozog‘iston (4,1 %), Afg‘oniston (4,1 %), Turkiya (3,2 %), Fransiya (2,7 %), BAA (2,1 %), Qirg‘iz Respublikasi (1,7 %), Tojikiston (1,6 %) va Pokiston (1,1 %) kabi davlatlar bo‘ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 38,8 %ni tashkil etdi.

O‘zbekiston jahonning 210 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (19,7 %), Rossiya (15,9 %), Qozog‘iston (5,9 %), Turkiya (3,7 %) va Koreya Respublikasi (2,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,3 %ni tashkil etib, unda asosan sanoat tovarlari (10,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,2 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,0 %) va har xil tayyor mahsulotlar (4,9 %) hissasi yuqori bo‘ldi (2-rasm) [13].

	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Xitoy	10 804,3	10 237,0	13 110,3
Rossiya Federatsiyasi	7 930,0	9 656,7	10 602,4
Qozog‘iston	3 592,4	3 423,6	3 932,0
Turkiya	2 614,2	2 461,3	2 432,1
Koreya Respublikasi	1 878,5	1 660,3	1 442,1
Afg‘oniston	693,5	886,3	1 316,9
Fransiya	773,3	990,4	1 205,5
Hindiston	609,4	789,7	1 089,2
Germaniya	876,7	973,3	1 056,4
BAA	515,1	526,1	1 046,2
Turkmaniston	939,1	950,4	876,8
AQSH	501,4	740,5	809,2
Qirg‘iz Respublikasi	814,1	674,4	787,3
Belarus	508,0	581,4	785,6
Tojikiston	605,6	564,5	654,3
Eron	418,4	405,0	455,8
Pokiston	319,6	343,1	427,6
Italiya	417,7	369,1	390,3
Niderlandiya	193,2	215,0	334,5
Yaponiya	189,6	336,3	326,8

2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, mln AQSH dollari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (12,6 %), Xitoy (5,6 %), Qozog‘iston (4,1 %), Afg‘oniston (4,1 %), Turkiya (3,2 %), Fransiya (2,7 %), BAA (2,1 %), Qirg‘iz Respublikasi (1,7 %), Tojikiston (1,6 %) va Pokiston (1,1 %) kabi davlatlar bo‘ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 38,8 %ni tashkil etdi (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi 2025-yil yanvar-oktabr, mln AQSH dollari

Tarmoq savdosi va savdo salohiyati nuqtayi nazaridan O‘zbekistonning Afg‘onistonga asosiy eksporti asosan mineral yoqilg‘ilar (44 %), temir va po‘lat (20 %), mashinasozlik va uskunalar (19 %) bo‘lib, undan keyin uzoq masofada sabzavot (5 %) hamda bug‘doy va un (3 %) yetib keladi. Aksincha, Afg‘onistonning O‘zbekistonga eksporti asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan iborat: sabzavot va sabzavot mahsulotlari (61 %), terilar va teri mahsulotlari (34 %) hamda mevalar (4 %) [13].

Savdo salohiyati nuqtayi nazaridan ITC tomonidan olib borilgan tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston Afg‘onistonga eksport hajmini kengaytirishi mumkin. Xususan, qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va sanoat tovarlari – shakar, ba’zi qayta ishlangan neft mahsulotlari, dori vositalari, to‘qilgan matolar va uy-ro‘zg‘or buyumlari Afg‘onistonda katta talabga ega bo‘lib, O‘zbekiston uchun diversifikatsiya manbai bo‘lishi mumkin.

Quyidagi bo‘limlarda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar barcha muhim sohalar (savdo va investitsiyalar, tranzit va logistika, energetika va suv resurslari, qishloq xo‘jaligi, moliya va bank, inson kapitali va ijtimoiy soha, huquqiy-siyosiy omillar va mintaqaviy geosiyosat) nuqtayi nazaridan tahlil qilingan [4].

I. Savdo va investitsiyalar: hajm, tuzilma va tendensiyalar

2021–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston-Afg‘oniston savdo hajmlari yildan yilga oshib bormoqda. Rasmiy va ommaviy manbalarga ko‘ra, 2024-yil uchun ikki tomonlama savdo aylanmasi taxminan 1,13-1,14 mlrd dollarga yetdi. 2025-yilda bu tendensiya davom etdi: O‘zbekistonning Afg‘onistonga eksporti 2025-yilning dastlabki 8 oyida 873 mln dollarni tashkil etdi – bu esa yil yakunida eksport hajmi yanada ortishi mumkinligini ko‘rsatadi [13].

Eksport tarkibida O‘zbekistondan Afg‘onistonga yetkazilayotgan asosiy mahsulotlar: oziq-ovqat mahsulotlari (don, shakar, yog‘ mahsulotlari), tekstil va to‘qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyo mahsulotlari va elektr energiyasi. Afg‘oniston tomoni esa O‘zbekistonga asosan qimmatbaho minerallar, xom ashyo va oz miqdorda tayyor mahsulot eksport qiladi, biroq umumiy eksport hajmi ancha kichik. COMTRADE va boshqa statistik manbalar 2024-yilda O‘zbekiston eksporti Afg‘onistonga 1,4 mlrd dollarga yetganligi haqida ma’lumot beradi.

Investitsiyalar borasida 2024-yil avgustdagi Aripov tashrifi chog‘ida e’lon qilingan 35 ta memorandumning umumiy qiymati 2,5 mlrd dollar sifatida ko‘rsatildi. Bu memorandumlar energetika, qishloq xo‘jaligi, sanoat va tranzit sohalarini qamrab oladi. Muhim jihat shundaki, memorandumlarning e’lon qilingan summasi bilan real amalga oshgan investitsiyalar orasida farq bo‘lishi odatiy hol. Memorandumlar niyat va kelishuvni ifodalaydi, investitsiyalar esa keyingi bosqichlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, 2024-2025-yillarda xususiy sektor darajasida o‘nlab kichik tijorat va investitsion kelishuvlar imzolangan (masalan, 45 ta shartnoma – taxminan 20 mln dollar atrofida qayd etilgan).

Tahliliy jihatdan aytganda, savdo hajmining oshishi bir necha omillarga bog‘liq: O‘zbekistonning ishlab chiqarish imkoniyatlari va mintaqaviy logistika salohiyatini kengaytirish istagi; Termiz va boshqa chegara shaharlaridagi savdo infratuzilmasining rivojlanishi; siyosiy darajadagi tashriflar va imzolangan memorandumlar orqali biznes aloqalarining rag‘batlantirilishi. Biroq savdo hajmi o‘sishining barqarorligini ta’minlash uchun logistika, bojxona protseduralari, xavfsizlik va moliyalashtirish muammolarini hal etish zarur.

II. Tranzit, logistika va infratuzilma loyihalari

Afg‘oniston geografik jihatdan Xitoy va Janubiy Osiyo, O‘rta Osiyo va Fors ko‘rfazi yo‘nalishlarini bog‘lovchi markaziy tranzit koridorlariga ega. O‘zbekiston bu imkoniyatdan foydalanib, tranzit yo‘llarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. UAP (Uzbekistan-Afghanistan-Pakistan) temir yo‘li loyihasi mintaqaviy miqyosdagi eng muhim tashabbuslardan biridir. Ushbu loyiha amalga oshsa, O‘zbekistonni Pokiston portlari orqali Janubiy Osiyoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lab, logistika xarajatlarini kamaytiradi va yangi savdo yo‘llarini ochadi. Hozircha UAP loyihasi protokol va loyiha bosqichlarida bo‘lib, uning qiymati va uzunligi borasida bahslar mavjud. Amalga oshirish esa texnik, moliyaviy va xavfsizlik jihatidan murakkab [2].

Termiz-Hayraton (Do‘stlik) ko‘prigi va atrofdagi tranzit markazlari hozirgi paytda ham asosiy savdo o‘tkazgich vazifasini bajaradi. O‘zbekiston tomonidan Termiz hududida logistika markazlarining tashkil etilishi va bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi savdo oqimlarining tezlashuviga olib keldi. Shu bilan birga, tranzitdagi xavfsizlik kafolatlarini kuchaytirish ham zarur – masalan, cheklangan va xavfsiz tranzit zonalari, yuklarni kuzatuv tizimlari, bojxona ma’lumot almashinuvi kabi mexanizmlar ikki tomon uchun ham foydali hisoblanadi.

III. Energetika va suv resurslari

Energetika va suv – O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlarida strategik sohalardir. O‘zbekistonning energiya eksporti va tranzit imkoniyatlari Afg‘onistonga elektr energiyasini yetkazib berishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, Afg‘onistonning suv resurslari (Amudaryo bo‘yidagi hududlarda) hududiy suv taqsimoti va qishloq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. 2024-2025-yillarda suv va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha bir qator kelishuvlar imzolandi. Ularda resurslarni birgalikda boshqarish, suvdan samarali foydalanish va chegara kanallarini tizimli boshqarish maqsad qilingan. Biroq suv masalalari murakkab bo‘lib, qishloq xo‘jaligi uchun suv ta’minoti ko‘pincha mintaqaviy siyosiy qarorlarga bog‘liq.

Energetika investitsiyalari ham ahamiyatli. Afg‘oniston ichki energiya ehtiyojlarini qondirish uchun O‘zbekiston va boshqa mintaqaviy hamkorlar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzishni ko‘rib chiqmoqda. Shu bilan birga, Afg‘oniston hududidagi ayrim minerallar va energiya resurslari O‘zbekiston kompaniyalari uchun investitsiya imkoniyatlarini yaratadi. Biroq bu yerda xavfsizlik va huquqiy noaniqlik muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda.

IV. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirish orqali Afg‘oniston bozorini ta’minlash imkoniga ega. Afg‘onistonning iqlim sharoitlari va ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanganligi sababli oziq-ovqat importiga ehtiyoj yuqori. O‘zbekiston don, yog‘, meva-sabzavot va boshqa sanoat mahsulotlarini yetkazib berish orqali bu bozorni barqaror ta’minlashi mumkin. Bu ikki tomon uchun ham ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq tranzitdagi to‘siqlar, bojxona protseduralari va moliyalashtirishdagi muammolar yetkazib berishni qiyinlashtirishi mumkin.

V. Moliya, bank va to‘lov mexanizmlari

Afg‘onistonning xalqaro tan olinmaganligi va sanksiyalar xavfi bank operatsiyalarini murakkablashtiradi. Ko‘plab xalqaro banklar Afg‘oniston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashdan tiyiladi, bu esa savdo to‘lovlarini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. O‘zbekiston banklari bu borada muayyan imkoniyatlarni taklif qilishi mumkin, biroq bu jarayon sezilarli huquqiy va reputatsion xavflarni o‘z ichiga oladi.

VI. Ijtimoiy ta’sir: ish o‘rinlari, migratsiya va inson kapitali

O‘zbekiston kompaniyalarining Afg‘onistondagi investitsiyalari mahalliy ish o‘rinlarini yaratishi, malakali ishchi kuchini jalb qilishi va ijtimoiy infratuzilma (sog‘liqni saqlash, ta’lim)ni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bu esa mintaqaviy miqyosda barqaror migratsiya siyosatini ishlab chiqish zaruriyatini tug‘diradi. O‘zbekiston uchun esa ba’zi ishchi kuchini qayta jalb qilish imkoniyati mavjud bo‘lishi mumkin.

VII. Huquqiy va siyosiy omillar: tan olinmaslik, memorandumlar va amalga oshirish

Tolibon rejimining to‘liq xalqaro tan olinmaganligi O‘zbekiston-Afg‘oniston aloqalarining huquqiy poydevorini murakkablashtiradi. Ko‘plab kelishuvlar memorandum shaklida imzolangan bo‘lib, ular o‘zida investitsion kelishuvlar, savdo kelishuvlari va loyihalar ro‘yxatini aks ettiradi. Ushbu memorandumlarning real investitsiyalarga aylanishi uchun qo‘shimcha hujjatlar, xalqaro moliyalashtirish mexanizmlari va monitoring zarur. Rasman tan olinmagan bo‘lsa-da, amaliy muloqot orqali manfaatlarni muvofiqlashtirish mumkin, biroq bu jarayon ham huquqiy va reputatsion xavflarni keltirib chiqaradi.

VIII. Mintaqaviy geosiyosat va boshqa davlatlar uchun foydalar

O‘zbekiston-Afg‘oniston iqtisodiy aloqalari Markaziy Osiyo, Pokiston, Eron, Qozog‘iston va Xitoy uchun ham muayyan manfaatlar yaratadi. Agar tranzit loyihalari (masalan, UAP) amalga oshsa, Pokiston portlariga chiqish orqali O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari Janubiy Osiyoga eksportini kengaytirishi mumkin. Bu esa Rossiya orqali o‘tuvchi yo‘llarga muqobil variant yaratadi va tranzit risklarini diversifikatsiya qiladi. Eron-O‘zbekiston tranzit aloqalari ham Qora dengiz va Fors ko‘rfazi yo‘llarini chetlab o‘tgan holda yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilganimizda, 2021-2025-yillarda O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy aloqalar aniq rivojlanish bosqichiga o‘tdi: diplomatik tashriflar, memorandumlar va xususiy sektor kelishuvlari savdoning oshishiga hissa qo‘shdi. Rasmiy manbalar va ommaviy axborot vositalariga ko‘ra, 2024-yil uchun savdo aylanmasi 1,14 mlrd dollar miqdorida qayd etilgan, 2024-yil avgustida 35 ta memorandum 2,5 mlrd dollar qiymatida e’lon qilingan va 2025-yilning dastlabki 8 oyida O‘zbekistonning Afg‘onistonga eksporti 873 mln dollarga yetdi. Bularning barchasi hamkorlikning jadallashayotganini ko‘rsatadi. Biroq memorandumlarning real amalga oshirilishi, investitsiyalar oqimi va tranzit loyihalarining amalda bajarilishi uchun xavfsizlik, huquqiy kafolatlar, moliyalashtirish va xalqaro institutlar bilan hamkorlik muhim. UAP temir yo‘lining qurilishi nafaqat bu ikki mamlakat uchun, balki butun mintaqa uchun ham muhim. Uning amalga oshirilishi ikki mamlakatning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashga turtki beradi va bu jarayondan butun mintaqa manfaatdor bo‘ladi.

Takliflar (siyosiy va amaliy yo‘nalishlar)

1. Memorandumlarni amalga oshirish platformasini yaratish.

Har bir memorandum uchun aniq bosqichlar, moliyalashtirish manbalari, mas’ul tashkilotlar va monitoring mexanizmini nazarda tutuvchi tartib ishlab chiqilsin. Memorandumlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va risklarni kamaytirish uchun sohalarni diversifikatsiyalash tavsiya etiladi.

2. Tranzit infratuzilmasini mustahkamlash.

Termiz-Hayraton markazlarini zamonaviy logistika markazlari, omborxona va soddalashtirilgan bojxona tizimlari bilan jihozlash, xavfsizlikni oshirish maqsadida chegara patruli va yuk xavfsizligini ta’minlash tizimlarini joriy etish zarur.

3. Xalqaro moliyalashtirish va kafolat mexanizmlari.

Memorandumlar va loyihalarni amalga oshirishda xalqaro moliya institutlari (ADB, Islom Taraqqiyot Banki, boshqa mintaqaviy fondlar) bilan muzokaralarni kuchaytirish hamda sanksiyalar xavfini kamaytiruvchi mexanizmlarni izlash maqsadga muvofiq.

4. Xavfsizlik va huquqiy kafolatlar.

Investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, sug‘urta mexanizmlarini joriy etish va xavfsizlikni oshirishga yo‘naltirilgan mintaqaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

5. Xususiy sektorni rag‘batlantirish.

Kichik va o‘rta biznes uchun kredit va grant dasturlarini joriy etish, qo‘shma korxonalar va texnologik transfer amaliyotlari orqali hamkorlikni kengaytirish lozim.

6. Suv resurslarini boshqarish.

Amudaryo va boshqa cheklangan suv resurslari masalalarida chegaraoldi kelishuvlarini mustahkamlash hamda suvni tejovchi qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish talab etiladi.

7. Mintaqaviy hamkorlik va diversifikatsiya.

UAP va boshqa tranzit yo‘llari uchun moliyalashtirish manbalarini topish va samarali modellar ishlab chiqish, shuningdek qo‘shni davlatlarni loyihalarga jalb qilish orqali risklarni kamaytirish zarur.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati

1. Anadolu Agency. “Afghanistan, Uzbekistan Ink $2.5B Deals.” 18 August 2024.
2. TOLOnews. “Uzbekistan’s Exports to Afghanistan Top $873 Million in Eight Months.” 26 September 2025.
3. Gazeta.uz. “Tashkent and Kabul Agree on Trade Preferences.” 13 June 2025. (Report on $1.134 billion trade in 2024).
4. TOLOnews. “45 New Deals Inked to Boost Afghan-Uzbek Trade Relations.” 3 August 2025.
5. VOA News. “Taliban Announces $2.5bn in Trade and Investment Deals with Uzbekistan.” 17-18 August 2024.
6. The Diplomat. “Uzbekistan Forges Ahead, Deepening Relations With Taliban-ruled Afghanistan.” 21 August 2024.
7. Trading Economics / UN COMTRADE Data. “Uzbekistan Exports to Afghanistan – 2024 Data.”
8. Intellinews. “Taliban Announces $2.5bn in Trade and Investment Deals with Uzbekistan.” August 2024.
9. TOLOnews, Ariana News, UzDaily va boshqa mintaqaviy axborot manbalari (2024-2025) – xususiy sektor kelishuvlari bo‘yicha xabarlar.
10. Karim Suraiya. O‘zbekiston va Afg‘oniston hamkorlik munosabatlarining yangi bosqichi. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, Volume 1, Issue 5. ISSN 2181-1784.
11. Qodiri Ahmad Qais. “Afg‘oniston-O‘zbekiston munosabatlarining yangi bosqichi.” Daily 8 Morning, 2020.
12. Wikipedia. UAP project summary (loyiha konteksti va parametrlari).
13. Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi ochiq statistika portali.

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz